

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA  
VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING LOKAL-MODULLI  
TEXNOLOGIYASI**

*Ibragimov Muslim Artikmashrabovich*

*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tahliliy materiallar asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish, ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi fanlar bilan birga, to'garak mashg'ulotlarida foydalanish uchun barcha guruhlarga mo'ljallangan «Bo'lajak o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish» modulli kurs dasturi haqida fikr yuritiladi.*

***Аннотация:** В данной статье на основе аналитических материалов рассчитано развитие патриотизма у будущих учителей физического воспитания совместно с предметами, относящимися к общественным и гуманитарным наукам, для всех групп, которые будут использоваться в классной деятельности «Развитие патриотизма». в будущих учителей» » обсуждается программа курса модуля.*

***Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, Texnologik Vatan, talabalar, talabalar vatanparvarligi, zamonaviy yoshlar, komponent, tarixiy xotira.*

***Ключевые слова:** патриотизм, Технологическая Родина, студенты, студенческий патриотизм, современная молодежь, компонент, историческая память.*

Texnologik ikki qismdan tashqil topgan: mazmunli-protsessual va tashkiliy-pedagogik.

Texnologiyaning mazmuni o'zida kognitiv – amaliy faoliyat – refleksiya birligi

va ana shu bosqichlarni har birida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi bo'lajak o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish darajalari (anglash, tushunish, munosabat va fikrlash)ni aks ettiradi Texnologiyaning tashkiliy-pedagogik komponentini aniqlashtirish maqsadida maxsus metodik karta ishlab chiqildi (qarang 2.3.2-jadval).

**Texnologiyani amaliyotga tatbiq etishning metodik kartasi**

<b>Birinchi shart-sharoit: Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish</b>	
<b>Birinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi</b>	
<b>Maqsad</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish.
<b>Mazmun</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishni tizimli hamkorligi asoslari modulli kurs dasturi
<b>SHakl, metod va vositalari</b>	<b>Tashkiliy shakllari:</b> davra suhbatlari, debatlar, seminar, o'yinlar, uchrashuvlar, sport musobakalari <b>Metodlari:</b> munozara, mashq, ishbilarmonlik o'yini va interfaol metodlar. <b>Vositalari:</b> tarqatma materiallar, Internet, elektron ta'lim resurslari.
<b>Natija</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni tushunchalarini anglaydi va loqaydik, beparvolik xislatlari yo'qolib boradi.
<b>Ikkinchi shart-sharoit: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish bo'yicha reflektiv nuqtai nazarni qaror toptirish</b>	
<b>Ikkinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi</b>	
<b>Maqsad</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish nuqtai nazarni qaror toptirish
<b>Mazmun</b>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish bo'yicha modulli kurs dasturi

<b>Shakl, metod va vositalari</b>	<p><b>Tashkiliy shakllari:</b> seminar, “Bo’lajak mutaxassislarda vatanparvarlikni rivojlantirish ” mavzusidagi esse tayyorlash</p> <p><b>Metodlari:</b> vaziyatlar tahlili, mashq, g’oyalarni umumlashtirish.</p> <p><b>Vositalari:</b> Internet, elektron ta’lim resurslari.</p>
<b>Natija</b>	Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish darajasi ortadi.
<b>Uchinchi shart-sharoit:</b> o’quv faoliyati jarayonida bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish samaradorligini oshirish.	
<b>Uchinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi</b>	
<b>Maqsad</b>	Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish bo’yicha subyektiv tajribani shakllantirish
<b>Mazmun</b>	Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish bo’yicha modulli kurs dasturi
<b>Shakl, metod va vositalari</b>	<p><b>Tashkiliy shakllari:</b> multimedia-lektsiya, seminar, konsultatsiya, monitoring.</p> <p><b>Metodlari:</b> kuzatish, tushuntirish, tizimlashtirish, muammoli va tadqiqotchilikka doir metodlar, esse yozish.</p> <p><b>Vositalari:</b> proektsion material, tarqatma material (loyihani himoya qilish jarayonida), internet, elektron ta’lim resurslari.</p>
<b>Natija</b>	Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishga oid tajriba ortadi.

Tadqiqot ishida tahliliy materiallar asosida bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish, ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi fanlar bilan birga, to’garak mashg’ulotlarida foydalanish uchun barcha guruhlariga mo’ljallangan «Bo’lajak o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish» modulli kurs dasturi ishlab chiqildi.

Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan «Vatanparvar» treningidan foydalanish mumkin. Mazkur treningni bajarish uchun muammoli savollar talabalar bilan birga ular uchun dolzarb va [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

hayratlantiruvchi mavzular asosida shakllantiriladi.

Mashq beshta qadam orqali amalga oshiriladi:

1) “I” – qiziq, muammo nimada – muammoni umumiy ko’rinishda shakllantirish bosqichi;

2) “D” – muammoli savollar tuzish – savol ko’rinishida muammoni shakllantirish;

3) “E” – muammoni hal etishning maqbul yechimi bormi – dastlab individual, keyin juftliklarda ko’proq yechim topish;

4) “A” – tanlov qilish qanday qiyin – muammoning maqbul va ratsional yechimini tanlab olish;

5) “L” – qiziquvchanlik, hayotda qanday kechadi – qarorni amalga oshirish jarayoni bosqichi. Barcha bosqichlar amalga oshirib bo’linganidan so’ng, muammoli savol yuzasidan takliflarni muhokama qilish bo’yicha munozara o’tkaziladi.

Talab etadigan aniq vaziyatlarning tahlilini amalga oshirish bo’yicha bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish uchun qo’llaniladigan mashq va topshiriqlarni ko’rib chiqamiz.

1. “Vaziyat tahlili: vatanparvarlik menda...”

Maqsad: ijobiy Men-obrazini yaratish, har bir ishtirokchida empatiyani rivojlantirish, o’z-o’ziga beradigan bahosini ko’tarish.

Aniq vaziyatlar tahlilidan so’ng, o’qituvchi har bir ishtirokchidan quyidagi fikrlarni aytishni so’raydi: “Menda vatanparvarlikni rivojlantirish.... qadrlayman”, “Men ...dagi (vatannini nomi) ... qadrlayman”, “Men hayotda .....ni qadrlayman”.


Mashq tugallangunga qadar o’qituvchi uni bajarish jarayonida yuzaga kelgan fikr va hissiyotlar bilan o’rtoqlashishni so’raydi.

2. “Men vatanga nisbatan loqaydlikka, vatanfurushlikka qarshiman” mavzusida esse yozish.

Maqsad: bo’lajak o’qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarida mamlakatni taraqqiyot va islohotlar jarayoniga dahldorlik tuyg’usini tarkib toptirishdan iborat.

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda maxsus kursning amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalarda vatanparvarlikni va shaxsiy insoniy pozitsiyalar, mas'uliyat va burch rivojlantiriladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda tashabbuskorlik va mehnatsevarlik, kasbiy qiziqishga oid bilim va tajribasi, yoshlar siyosatiga oid turli xil qonunchilik, normativ, huquqiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni anglash imkonini beradi. Ana shu tarzda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish kompetentsiyalarini oshirish uchun keng imkoniyatga ega bo'linadi.

Loyihalarni tayyorlashda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish mustaqil ishlashni talab etadi. Mazkur jarayonda ular vatanparvarlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish bilan shug'ullanishadi. Loyihani tayyorlash uchun o'qituvchi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi (qarang 2.3.2-rasm):



### **2.3.2-rasm. Loyihalashtirish bosqichlari va vazifalari**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish mavzulari uch yo'nalishga bo'lindi: vatanparvarlik va faollik tarbiyasi, loqaydlik,

vatanfurushlikka qarshi kurashish, vatanparvarlik ko'nikmalari (qarang 2.3.2-jadval).

**2.3.2-jadval. Yo'nalishlar va loyiha mavzulari**

<b>Yo'nalishlar</b>	<b>Loyiha mavzulari</b>
Vatanparvarlik va faollik tarbiyasi	1. Bugungi kun qahramonlari. 2. Vatanni sevish mezonlari. 3. Uchinchi ming yillik vatanparvarlari. 4. Ijtimoiy faol o'quvchi.
Ijtimoiy loyqadlik, vatan taraqqiyoti uchun kurashish	1. Loqayd talaba. 2. Ijtimoiy befarqlik. 3. Ijtimoiy nafaollikni ijtimoiy-psixologik omillari. 4. Men vatanfurushlikka qarshiman. 5. Vatanfurushlikni ijtimoiy ta'siri.
Vatanparvarlik ko'nikmalari	1. Men vatanparvar talabaman. 2. Bilim olishning yoshlar faoliyatidagi o'rni. 4. Kasbiy mahorat va bilimdonlik mushtarakligi. 5. Mening mahalam- mening vatanim.

Mazkur mavzular tarbiyaviy tavsifga ega bo'lib, talabalar ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasida o'zlari ham erkin ravishda loyiha mavzusini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Mustaqil ish topshirig'i sifatida egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida talabalarga esse yozish topshirildi.

Bundan tashqari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun ekskursiya tashkil etish mumkin. Ekskursiyalar paytida va yurishlarda o'qituvchilar atrofda go'zallikka e'tibor berishadi. Tabiiy va obyektiv dunyo, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish haqida suhbatlashishi mumkin. O'qituvchi o'z ishida turli shakl va usullardan foydalangan holda vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz olib boriladi. Shuningdek, ta'lim faoliyati va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyatida talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishda bir nechta texnologiyalardan foydalanish mumkin.

**4-jadval.**

**Metodlar guruhining xususiyatlari**

	Metodlar guruhi	Usullar	Metodlarning xususiyatlari
1	Shaxsning ongini shakllantiruvchi metodlar	Ishontirish, munozaralar, misollar, takliflar, suhbatlar, ma'ruzalar	Talaba o'quv jarayonining to'liq ishtirokchisi sifatida faol qatnashadi.
2	Tashkilotlarda fuqarolik xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan metodlar	Pedagogik talab, jamoaning talabi, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish, jamoaviy ijodiy biznes, loyiha usuli.	Talaba jamoaga nisbatan o'z majburiyatlarini anglaydigan vaziyatlarni yaratish, jamiyat uchun javobgarlik harakatlari. Jamiyat uchun talabalar faol fuqarolik pozitsiyasining ahamiyatini namoyish etish.
3	xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish metodlari	Raqobat, rag'batlantirish, jazolash, o'zaro yordam, muvaffaqiyat holatini yaratish.	O'z faoliyatini tahlil qilishga, sabab-oqibat munosabatlarini izlashga undaydigan talabalarni munosib rag'batlantirish, xulq-atvorini sozlash.
4	Nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi baholash metodlari	Anketalar, natijalarni tahlil qilish, testlar, amaliy vazifalar	Tizimli nazorat talabalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mas'uliyat hissi, intizom, tahlil qilishga yo'naltiradi. O'z faoliyati, o'z-o'zini hurmat qilish rivojlanadi.

1. Vizual: atrofdagi voqealarni kuzatish, rasmlar, albomlar, ko'rib chiqish, turli filmlarni namoyish qilish va tahlil etish.

2. Amaliy: o'yin mashqlari, tajribalar.

3. Og'zaki: o'qituvchining hikoyalari; talabalarning hikoyalari; badiiy asarlarni o'qish, suhbatlar, esdaliklarni yozish.

Vatanparvarlik faoliyatini baholash mezonlarining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat (vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish misolida):

1. Kognitiv vatanparvarlik va shaxsning yaxlit o'zini o'zi belgilashini tushunish uchun asos bo'lgan vatanparvarlik yo'naltirilgan bilimlarning rivojlanish darajasini belgilaydi.

Mezon ko'rsatkichlari:

- ichki tarixiy va madaniy jarayonni bilish fonida o'z tarixingizni (oilangiz, avlodlaringiz shajarasini) bilish;

- Vatan, uning tarixi, madaniyati, etnik kelib chiqishi, qahramonligi haqida bilim, yutuqlar, muammolar va boshqalar.;

- "kichik Vatan" haqidagi bilim (ona yurt: tarix, madaniyat, urf-odatlar, yutuqlar, muammolar va boshqalar);

- o'zbek vatanparvarligining mohiyati va xususiyatlarini tushunish;

- "Vatan", "vatanparvarlik", "vatanparvar", "burch", "Vatanga xizmat qilish", "milliy manfaatlar" kabi tushunchalar va toifalarning mazmunini bilish, "Vatanni himoya qilish";

- O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyatini, jamiyatimiz va davlatimizning o'ziga xosligini tushunish;

- insoniyat tarixidagi yo'l;

- jamiyat va davlatga xos bo'lgan jarayonlar va hodisalarni, muammolar va qarama-qarshiliklarni tahlil qilish qobiliyati, ularning sabablarini va O'zbekistonning dinamik rivojlanishi manfaatlarini ko'zlab hal qilish usullarini tushunish.

2. Dunyoqarash-qiymat jamiyatning qarashlari, e'tiqodlari, tamoyillari, manfaatlarini tizimining shakllanish davlatlar darajasini tavsiflaydi va jamiyatning rivojlanishidagi shaxsning o'rni va ahamiyatini tushunishga imkon beradi.

Mezon ko'rsatkichlari:



- Vatanni eng yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, ma'naviy tarixiy va yaxlit qadriyat sifatida tushunish;

- tarixga, urf-odatlariga, madaniyatga, qahramonlikka mansubligidan faxrlanish;

- Vatanning va yutuqlari bilan uzviy bog'liqlik to'g'risida xabardorlik, uni nima tashkil etadi (tabiat, tarix, til, madaniyat, milliy o'ziga xoslik, nasl-nasab, din, hudud, mentalitet va boshqalar);

- Vatan qadriyatlari va manfaatlarining shaxsga nisbatan ustuvorligi, oila, guruh, korporativ, milliy, siyosiy va boshqalar;

- Vatanning jamiyat, davlat va taqdir hayotidagi o'rnini anglash;

- O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qilish, uning kuchi va qudratini tiklash zarurligiga ishonish.

3. Motivatsion-ehtiyoj shaxsning vatanparvarlik yo'nalishi darajasini, ularning yo'nalishini, maqsadlarini, ma'naviy va axloqiy ehtiyojlar, manfaatlar, motivlar va boshqalar bilan belgilanadigan munosabatlarni tavsiflaydi.

Shaxsni vatanparvar sifatida belgilashni shakllantiruvchi intilishlar bo'yicha mezon ko'rsatkichlari:

- O'zbekistonning tarixiy o'tmishi va hozirgi rivojlanish bosqichini bilish zarurati;

- O'zbekiston tarixiga, zamonaviy jamiyat va davlat rivojlanishining muammolari hamda xususiyatlariga doimiy qiziqishning namoyon bo'lishi;

- shaxslar, guruhlarining vatanparvarlik ideallari, ma'naviy, axloqiy va madaniy mavjudligi bo'yicha namunalar;

- Qurolli kuchlarga ijobiy munosabat va qiziqish, Vatanni himoya qilish bo'yicha fuqarolik va harbiy burchni bajarish istagi;

- vatanparvarlik tamoyillariga rioya qilish, vatanparvarlik darajasining namoyon bo'lishi.

4. Vatan fuqarosi – vatanparvar sifatida faoliyat va xulq-atvor, shaxsning bunga tayyorligini belgilaydi o'zini to'liq anglash.

Shaxsning vatanparvarlik missiyasini bajarishga tayyorligi bo'yicha mezon

ko'rsatkichlari:

- Vatan farovonligi va uni himoya qilish hamda ijodiy faoliyatda bevosita ishtirok etishga tayyorlik;
- shaxsning, guruhning vatanparvarlik faoliyati subyekti sifatida ijtimoiy faoliyati;
- jamiyat, davlat hayotining bir sohasida Vatanni himoya qilish funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, malakalar va fazilatlar to'plami;
- ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatning bir (bir nechta) sohalarida O'zbekistonni rivojlantirish va mustahkamlashga haqiqiy hissa;
- vatanparvarlik faoliyati subyekti sifatida o'zini o'zi anglash yoki jamoat va davlat hayotining bir nechta sohalarini;
- vatanparvarlikni hayotiy tamoyil sifatida himoya qilish va tasdiqlash kosmopolitizm, uning deformatsiyalari va buzilishlari bilan eng yuqori qiymat sifatida kurashish.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida darslarda talabalar o'rtasida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning tanlangan darajalari ma'lum miqyosda shartli o'zgarishi mumkin. Chunki vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarning darajalari va aniqligi to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida loyiha metodidan foydalanish bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishga imkon berdi. Bunda talabalar o'z faoliyati maqsadini mustaqil belgilaydi, uni amalga oshirishni rejalashtiradi, qo'yilgan vazifalarni hal etishning maqbul usullarini tanlaydi va bu jarayon ularda vatanparvarlikni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish layoqati ham mustahkamlanadi (5-jadval).

Vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning yuqoridagi barcha usullari, shakllanish darajalari, integrativ faoliyatga asoslangan noan'anaviy dars turlari uslubiy tavsiyalar shaklida taqdim etiladi.

5-jadval.

**Talabalarning fazilatleri Vatanparvarlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlash darajasi darslarida**

Yuqori darajasi	Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish jarayoni bu faollik, maqsadga muvofiqlik, yuqori tashkilot darajasi, muvozanatli foydalanish kutilganlarga erishish uchun vositalar, shakllar, usullar, texnologiyalar natijalar. O'qituvchilar va talabalarning qiziqishlari bir-biriga mos keladi, munosabatlar juda uyg'un, motivatsiya birgalikdagi faoliyat jarayonida ijobiy va barqaror. Kutilgan natijaga erishish mumkin.
O'rta darajasi	Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish jarayoni bu nisbiy tashkilotchilik, minimal faollik, muvozanatsiz, eng yaqiniga erishish uchun shakllar, usullar va vositalardan noto'g'ri foydalanish vazifalari bilan tavsiflanadi. Faoliyatning istiqbolli va innovatsion yo'nalishlari, qoida tariqasida, mavjud emas. O'qituvchilar va talabalarning qiziqishlari faqat qisman mos keladi, munosabatlar beqaror, emas. Ular muhim asoslarga ega. Jarayonda ijobiy motivatsiya birgalikdagi faoliyat doimiy ravishda va salbiy daqiqalar bilan birga namoyon bo'ladi. Kutilgan natijaga erishilmaydi (to'liq, ya'ni qisman).
Past darajasi	Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish jarayoni u kam boshqariladigan, uyushmagan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan. Uning subyektlari o'rtasida o'zaro ta'sir yo'q. Subyekt-obyekt munosabatlari rasmiy yoki mavjud emas. Faoliyat jarayonida ijobiy yo'naltirilgan motivatsiya bu o'zini namoyon qilmaydi, buning natijasida kutilgan natijaga erishilmaydi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini mamlakatning madaniy merosi, xalq an'analari, urf-odatleri bilan tanishtirish, ularda eng yaxshi vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish kerak. Buning uchun talabalarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash loyihalari va dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- o'qituvchilar uchun pedagogik faoliyat jarayonida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha onlayn kurslar va malaka oshirish dasturlarini yaratish;

- ta'lim ishlari bo'yicha umumta'lim tashkilotlari direktorlar maslahatchilari institutini rivojlantirish;

- auditoriyada vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha uslubiy maslahatlar yaratish, ochiq darslar o'tkazish, o'quv komponentini fan ta'limiga integratsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tanlovlar o'tkazish;

- yaxshi va mukammal o'qish obro'sini oshirish, mehnatsevar o'quvchilarni rag'batlantirish va tan olish tizimini yaratish;

- o'qituvchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, pedagogik ta'limni ommalashtirish;

- murabbiylik tizimining uzatish vositasi sifatida rolini tiklash va kuchaytirish tajriba, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va an'analar;

- ijtimoiy fanlar kursini aktuallashtirish, fuqarolik ma'rifatini rivojlantirish.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya darslarida vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish sohasida maktab o'quvchilarini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bu o'z tanasini takomillashtirish vositalari va usullariga ega bo'lgan, uni biladigan, sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash vositalari hamda usullariga ega bo'lgan, tananing asosiy tizimlarining imkoniyatlarini oshiradigan shaxsni shakllantirishdir. Shuning uchun amaliy faoliyatda anatomiya, fiziologiya, inson gigienasi va jismoniy tarbiya mavzularidagi fanlararo o'zaro ta'sirlarning eng keng tarqalgan namunalari mavjud. Shu bilan birga, asosan, biologiya va jismoniy tarbiya bo'yicha qo'shma darslar o'tkaziladi, bu yerda biologiya o'qituvchisi nazariya mavzularini, jismoniy tarbiya o'qituvchisi esa amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni beradi. Bundan tashqari, adabiyotlarda jismoniy madaniyatning hayot xavfsizligi, fizika, kimyo va boshqalar bilan ijobiy fanlararo o'zaro ta'siri tasvirlangan. Biroq, ko'pincha bu tadbirlar bir martalik xarakterga ega, jismoniy madaniyatni integral o'qitish esa o'quv jarayonini tizimli tashkil etish sharti bilan amalga oshirilishi

kerak. Bundan tashqari, integrativ ta'limning eng to'liq ta'siri o'quv yili yoki maktab bosqichi davomida dasturiy ta'minotni o'rganishni fanlararo rejalashtirishga kompleks yondashuv bilan namoyon bo'ladi. Faqatgina bu holda integratsiyalashgan ta'lim o'rganilayotgan hodisalarning yaxlit modellarini yaratishga yordam beradi, modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishni, talaba shaxsiyatining ko'p qirrali rivojlanishini va uning integral tafakkurini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, «Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish » texnologiyasining tashkiliy-metodik komponenti vatanparvarlikni rivojlantirish nuqtai nazarni qaror toptirishni talab etib oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

### **XULOSA**

1.Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishning o'rni yuqori ekanligi xulosa qilindi. Vatanparvarlikni rivojlantirish, g'oyaviy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlari shakllanadi.

2.Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish yetarli darajada emasligi va saqlanib qolayotgan yoshlar ishsizligi muammosi vatanini qadrlamasligi bilan izohlanadi.

3.Ta'lim tizimida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda faol fuqarolik pozitsiyasiga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish birinchi o'rindagi vazifaga aylanadi.

4.Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda yurtga sadoqatini va mehnatsevarligini oshirishda ta'lim muassasalari va ushbu jarayonga bevosita mas'ul bo'lgan shaxslar, ota-onalar, o'qituvchilar, psixolog, shifokor, tengdoshlar, hududiy mehnat bozori mutasaddilari, ommaviy axborot vositalari hamkorligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

5.Pedagogika fanlari doirasidagi ilmiy izlanishlarda tadqiqot ishining maqsadiga erishishdagi muhim vosita modellashtirishdir. Modellashtirishda dissertatsiya doirasida tadqiq etilayotgan obyekt modeli yaratiladi.

6.Hozirgi vaqtda bo'lajak o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda yangi qadriyatlarni izlash aynan ijtimoiy

beqarorlik mavjudligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y, 03/20/637/1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF–60–sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y.

3. Kurbanov R.Yu. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g’oyaning o’rni: fals. fan. nomz... diss. avtoreferati –Toshkent, 2008.

4. O’zbekistonliklarning milliy o’zligi: sotsiologik tadqiqot. Ubaydullayeva R. va boshqalar. –Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2004. – B.113

5. Rasulev E.X. Prolema patriotizma i patrioticheskogo vospitaniya// Problemi duxovno-nravstvennogo i patrioticheskogo vospitaniya voennoslujashix i puti ix resheniya: Materiali auctno-prakticheskoy konferentsii. 26-27 aprelya 2001. – Tashkent: Akademiya VS RU, 2001. – S. 85.

5. Xankeldiyev Sh., Abdullayev A. va boshqalar «Kasb-xunar kollejlari o’quvchi yoshlarining sog’lom turmush tarzining jismoniy madaniyati» O’quv-qo’llanma “Farg’ona” nashriyoti, 2010 y. – B.49

6. Xankeldiyev Sh., Abdullayev A. va boshqalar “Sog’lom turmush tarzining jismoniy madaniyati”. O’quv qo’llanma “Farg’ona” nashriyoti, 2010 y.

7. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish. O’quv qo’llanma. T.: 2005

8. Bahodir Zokir. G’arb va sharq liberalizmi// Tafakkur. – Toshkent, 2004. – №2. – B. 11.

#### **Elektron resurslar:**

1, <http://ziyonet.uz/>